


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

«TASDIQLAYMAN»

O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor
professor G.J. Jarilkasimova



_____ 2024 y.

**TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANIDAN
DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

Yo‘nalish ixtisosligi: SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ixtisosligi: Kardiologiya - 14.00.06

Buxoro– 2024

ANNOTATSIYA

Aholi orasida yurak kon tomir kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, bu kasalliklardan nogironlik, hatto o'lim holatlari birinchi o'rinda turadi.

Keyingi yillarda yurak qon-tomir tizimi kasalliklari va nosog'lom turmush tarzining o'zaro aloqadorligiga oid ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda ko'p chop etilmoqda. Nosog'lom turmush tarzining – yurak tomir kasalliklariga olib keluvchi sabablariga – xavf omillari deb nom berilgan. Xavf omillarining chastotasi ortib borishi bilan yurak-kon tomir kasalliklarining soni xam to'g'ri proporsional ravishda ortib boradi. Bu tendensiyani arterial gipertoniya, yurak ishemik kasalliklari, ateroskleroz va boshqa kasalliklarda kuzatish mumkin.

Klinik mushohadaning shakllanishi bu bo'lajak vrach faoliyatining asosi bo'lib, talabaning butun ta'lim olish jarayonida yuz beradi.

Ta'lim olishning bu qiyin jarayoni klinik amaliyotda bemor to'shagi oldida ishlash bilan aniqlanadi, lekin darslik klinik mushohada qilishni o'rganish uchun samarali bo'lishi zarur.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini, professional ta'lim tizimini, sog'liqni saqlash tizimidagi isloxlarni mukammallashtirish O'zR Prezidentining 7 dekabr 2018 yil PF-5590-son “O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni asosida olib borilib, xozirgi kunda faol qo'llanilmoqda xamda yuqori samaradorlik va maqsadga muvofiqlikka egadir.

O'zR Prezidentining 2017 yil 5 maydagi PQ-2956-sonli “O'zbekiston Respublikasidagi tibbiy ta'lim tizimini yanada islox qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, O'zR Prezidentining 2019 yil 6 maydagi PQ- 4310-sonli “Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm fan tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda axoliga tibbiy-sanitar yordam ko'rsatishni yaxshilash uchun uzluksiz ravishda ta'limini mukammallashtirish olib borilmoqda. Mazkur dasturda yurak qon tomir kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezini, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy diagnostikasi va

davolash O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya qilingan davo standartlariga asoslangan holda keltirilgan. Ushbu dastur kardiologiya mutaxassisligi yo‘nalishi bo‘yicha doktorantlar uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Badritdinova M.N.

BUXDTI oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasini mudiri, DSc., dotsent

Raxmatova D.B.

BUXDTI oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasini dotsenti, PhD

Taqrizchilar:

Nurboyev F.E.

BUXDTI ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini mudiri, DSc., dotsent

Tursunov X.X.

Andijon davlat tibbiyot instituti VMO va OTF ichki kasalliklar, kardiologiya va tez tibbiy yordam kafedrasini dosenti, t.f.d.

Tasdiqlangan

Dastur DKTFning 2024-yil “_____” _____ dan _____-son kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Aholi orasida yurak qon tomir kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, bu kasalliklardan nogironlik, hatto o'lim holatlari birinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda yurak qon-tomir tizimi kasalliklari va nosog'lom turmush tarzining o'zaro aloqadorligiga oid ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda ko'p chop etilmoqda. Nosog'lom turmush tarzining – yurak tomir kasalliklariga olib keluvchi sabablariga – xavf omillari deb nom berilgan. Xavf omillarining chastotasi ortib borishi bilan yurak-kon tomir kasalliklarining soni xam to'g'ri proporsional ravishda ortib boradi. Bu tendensiyani arterial gipertoniya, yurak ishemik kasalliklari, ateroskleroz va boshqa kasalliklarda kuzatish mumkin. Klinik mushohadaning shakllanishi bu bo'lajak vrach faoliyatining asosi bo'lib, talabning butun ta'lim olish jarayonida yuz beradi. Ta'lim olishning bu qiyin jarayoni klinik amaliyotda bemor to'shagi oldida ishlash bilan aniqlanadi, lekin darslik klinik mushohada qilishni o'rganish uchun samarali bo'lishi zarur.

Mazkur dasturda yurak qon tomir kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy diagnostikasi va davolash O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya qilingan davo standartlariga asoslangan holda keltirilgan.

Ushbu dastur kardiologiya yo'nalishi magistratura rezidentlari uchun mo'ljallangan.

O'quv dastur doirasida berilayotgan mavzular vrachlarning shifokor kadrlarga qo'yiladigan davlat talablarini, zamonaviy innovatsion texnologiyalari va ularning turlarini bilishlari amalda qo'llay olishlari, axborot texnologiyalaridan davolash va profilaktika jarayonida samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Zamonaviy kardiologiya o'zining asoslarida quydagilarga tayanadi:

- umumiy fundamental ilmlarga;
- tashxis nazariyasini ishlab chiqishga;
- organizmning normal va patologik fiziologiyasi qonunlariga;

- kasallikning klinik namoyon bo'lishi va uni davolash rejasiga;
- davolash uslubiga zamonaviy yondashishga;
- kasallikning oldini olish choralarini ishlab chiqishga.

Kardiologiya mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dolzarbligi ichki a'zolar patologiyalarining klinik yuzaga kelishi xilma-xilligi, yurak qon tomir tizimi kasalliklarining yengil, atipik, niqoblangan shakllarining keng tarqalganligi, poliorgan patologiyalar ko'p uchrashi, shifokorlarda keng dunyoqarashni shakllantirish lozimligi, klinik fikrlash mantiq va tashxislash semiotikasini takomillashtirishga asoslangan. Bundan tashqari, milliy formulyar tizim shifokordan bir tomondan davolash standartlarini bilishni talab qilsa, boshqa tomondan davolash taktikasini tanlashni cheklab qo'ymasligi lozim. Bunda yurak qon tomir tizimi asosiy kasalliklarining tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini chuqur o'rganish muximdir. Shuningdek, nafaqat asosiy nazariy qism, balki adekvat klinik tayyorgarlik xam shart. Vrach-kardiologni birlamchi va qo'shimcha ixtisoslashtirish va malaka oshirish kurslarida o'qishni asosiy vazifalaridan biri bo'lib ijodiy yondoshish, o'zlashtirganini mantiqiy tushunib olish, fikrlash, umumiy patogenetik jarayoniga bog'lab, davolash rejasini asoslash va bemorni kuzatish jarayonini shakllantira olishi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kasalliklarni davolash va profilaktika tadbirlarni ta'minlaydigan amaliy kunikmalarni o'rganish vazifalari qo'yilgan.

“Kardiologiya” mutaxassisligi bo'yicha o'zlashtirish amaliyotda poliklinika sharoitida o'tqaziladi. Talabgorlar qo'shimcha tekshiruv natijalarini mustaqil talqin qilishni, kardiologik kasalliklarni tashxislash va davolash muolajalarini bajarishni, birlamchi tibbiy xo'jjatlarni to'ldirishni, bemorlarni ko'rishni amaliy ko'nikmalar asosida amalga oshirishni bajarishlari shart.

Ushbu o'quv dastur tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun o'qiydigan umumiy amaliyot shifokor-kardiologlar uchun mo'ljallangan.

DASTUR MAQSADI

Sog 'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida, ya'ni kasalxona, klinika, dispanser, tibbiy markazlarda, kardiologiya va kardioreanimasiya bo'limlarida, xususiyy tibbiyot muassasalarida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini tashxislash, davolash va profilaktika ishlarini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lgan mustaqil ilmiy va amaliy faoliyatni amalga oshira oladigan yuqori malakali kardiologlarni tayyorlashdir.

VAZIFALAR

Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining profilaktikasi, ularni davolash va reabilitasiya chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarni shakillantirish vazifalarini bajaradi.

- klinik kardiologiya fanining ilmiy asoslari;
- aterosklerozni o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- arterial gipertenziyani o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- miokard kasalliklari va yurak yetishmovchiligini o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- aritmologiya sohasida zamonaviy tekshirishlar natijalari;
- aorta kasalliklarini o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- neyrosirkulyator distoniyani o'rganish bo'yicha zamonaviy tekshirishlar natijalari;
- orttirilgan va tug'ma yurak nuqsonlari epidemiologiyasi, yurak nuqsoni bo'lgan bemorlarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari;
- perikard kasalliklarini o'rganishning zamonaviy holati;
- o'pka gipertenziyasi va o'pka-yuragi rivojlanish muammosini o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar;

- infeksiyon endokarditni o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlar va ularning natijalari;
- ichki a'zo kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlar;
- yurak qon –tomir tizimi kasalliklarni davolash jarayonida komp'yuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash;
- operasion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish;
- vrachlik amaliyotida «komanda» bo'lib ishlash tamoyillarini;
- ritm va o'tkazuvchanlik buzilishini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, rejali davo va profilaktika standartlarini;
- zamonaviy antiaritmik vositalarni;
- essensial gipertenziya epidemiologiyasi, etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini, asoratlarini hamda profilaktikasini;
- simptomatik arterial gipertenziya rivojlanish mexanizmi, klinikasi, taqqoslama tashxislash va davolash tamoyillarini hamda profilaktikasini;
- lipid almashinuvi buzilishi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, xavf omillari, tashxislash, profilaktika va davolashning zamonaviy standartlarini;
- yurak ishemik kasalligining etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, xavf omillari, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, asoratlari va profilaktikasini;
- invaziv davolash usullarini;
- to'satdan koronar o'limni tashxislash va o'pka-yurak reanimasiyasi usullarini;
- o'mrov osti kateterini qo'yishni;
- vaqtinchalik kardiostimulyator o'rnatishni;
- defibrillyasiya o'tkazishni;

- plevral bo'shlig'ini punksiya qilishni;
- koma holatidan chiqarishni;
- miokard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, profilaktikasini;
- yurak yetishmovchiligi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash standartlari va profilaktikasini;
- aorta va periferik tomirlar kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- neyrosirkulyator distoniya etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va davolashni;
- surunkali revmatik yurak kasalligi etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- mitral, aortal, uch tabaqali va o'pka arteriyasi qopqog'i nuqsonlari, ko'p qopqoqli yurak nuqsonlari, kattalarda tug'ma yurak nuqsonlarini tashxislash va davolash standartlarini;
- perikard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini hamda profilaktikasini;
- birlamchi va ikkilamchi o'pka gipertenziyasi etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlarini;
- o'pka-yuragi rivojlanishi bilan kechuvchi kasalliklar, o'pka gipertenziyasi klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- o'pka arteriyasi tromboemboliyasini tashxislash va davolash standartlarini;
- infeksiyon endokardit etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini hamda profilaktikasini;
- endokrin kasalliklarda (gipotalamo-gipofizar tizimi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezi kasalliklari, semizlik, klimakterik sindrom) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qandli diabetda yurak qon -tomir tizimi holatini;

- hazm a'zolari kasalliklarida (simptomatik gastroduodenal yaralar, nospesifik yarali kolit, surunkali xolesistit, o't-tosh kasalligi, vitamin yetishmovchiligida miokard shikastlanishida) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- nafas a'zolari kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini, yurak kaslliklari asosida gospital va kasalxonadan tashqari pnevmoniyalar rivojlanish xususiyatlari va klinikasini, infarkt–pnevmoniyaning rivojlanish xususiyatlari va tashxislashni, ko'ks oralig'i kasalliklari va jarayonlarni perikardga tarqalishini;
- buyrak kasalliklarida (glomerulonefropatiya, nefrotik sindrom, o'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi) yurak qon-tomir tizimi holatini, surunkali dializ fonida yurak faoliyatini korreksiyalashni;
- homiladorlikda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qariyalarda yurak qon-tomir tizimi holatini;

Fan bo'yicha tayanch dokorantlarning malakasiga qo'yiladigan talablar

«Kardiologiya» fanini o'zlashtirish jarayonida dokorantlar:

- sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati;
- O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari);
- sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan isloxotlar;
- sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;
- yurak qon –tomir tizimi kasalliklarining epidemiologik ma'lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta'siri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, tashxislashning, shu jumladan erta tashxislashning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash me'zonlari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining kardiologik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlari;

- klinik kardiologiya fanining ilmiy asoslari;
 - aterosklerozni o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
 - arterial gipertenziyani o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
 - miokard kasalliklari va yurak yetishmovchiligini o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
 - aritmologiya sohasida zamonaviy tekshirishlar natijalari;
 - aorta kasalliklarini o'rganish bo'yicha zamonaviy ko'p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
 - neyrosirkulyator distoniyani o'rganish bo'yicha zamonaviy tekshirishlar natijalari;
 - orttirilgan va tug'ma yurak nuqsonlari epidemiologiyasi, yurak nuqsoni bo'lgan bemorlarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari;
 - perikard kasalliklarini o'rganishning zamonaviy holati;
 - o'pka gipertenziyasi va o'pka-yuragi rivojlanish muammosini o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar;
 - infeksiyon endokarditni o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlar va ularning natijalari;
 - ichki a'zo kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlar;
- yurak qon –tomir tizimi kasalliklarni davolash jarayonida komp'yuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash;
- operasion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish;
 - tibbiyot hujjatlarini to'g'ri olib borish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- vrachlik amaliyotida «komanda» bo‘lib ishlash tamoyillarini;
- ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, rejali davo va profilaktika standartlarini;
- zamonaviy antiaritmik vositalarni;
- essensial gipertenziya epidemiologiyasi, etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini, asoratlarni hamda profilaktikasini;
- simptomatik arterial gipertenziya rivojlanish mexanizmi, klinikasi, taqqoslama tashxislash va davolash tamoyillarini hamda profilaktikasini;
- lipid almashinuvi buzilishi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, xavf omillari, tashxislash, profilaktika va davolashning zamonaviy standartlarini;
- yurak ishemik kasalligining etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, xavf omillari, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, asoratlari va profilaktikasini;
- invaziv davolash usullarini;
- to‘satdan koronar o‘limni tashxislash va o‘pka-yurak reanimasiyasi usullarini;
- o‘mrov osti kateterini qo‘yishni;
- vaqtinchalik kardiostimulyator o‘rnatishni;
- defibrillyasiya o‘tkazishni;
- plevral bo‘shlig‘ini punksiya qilishni;
- koma holatidan chiqarishni;
- miokard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, profilaktikasini;
- yurak yetishmovchiligi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash standartlari va profilaktikasini;
- aorta va periferik tomirlar kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- neyrosirkulyator distoniya etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashhislash,

qiyosiy tashxislash va davolashni;

□ surunkali revmatik yurak kasalligi etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;

□ mitral, aortal, uch tabaqali va o'pka arteriyasi qopqog'i nuqsonlari, ko'p qopqoqli yurak nuqsonlari, kattalarda tug'ma yurak nuqsonlarini tashxislash va davolash standartlarini;

□ perikard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini hamda profilaktikasini;

□ birlamchi va ikkilamchi o'pka gipertenziyasi etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlarini;

□ o'pka-yuragi rivojlanishi bilan kechuvchi kasalliklar, o'pka gipertenziyasi klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;

□ o'pka arteriyasi tromboemboliyasini tashxislash va davolash standartlarini;

□ infeksiyon endokardit etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini hamda profilaktikasini;

□ endokrin kasalliklarda (gipotalamo-gipofizar tizimi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezi kasalliklari, semizlik, klimakterik sindrom) yurak qon-tomir tizimi holatini;

□ qandli diabetda yurak qon -tomir tizimi holatini;

□ hazm a'zolari kasalliklarida (simptomatik gastroduodenal yaralar, nospesifik yarali kolit, surunkali xolesistit, o't-tosh kasalligi, vitamin yetishmovchiligida miokard shikastlanishida) yurak qon-tomir tizimi holatini;

□ nafas a'zolari kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini, yurak kaslliklari asosida gospital va kasalxonadan tashqari pnevmoniyalar rivojlanish xususiyatlari va klinikasini, infarkt–pnevmoniyaning rivojlanish xususiyatlari va tashxislashni, ko'ks oralig'i kasalliklari va jarayonlarni perikardga tarqalishini;

□ buyrak kasalliklarida (glomerulonefropatiya, nefrotik sindrom, o'tkir va

surunkali buyrak yetishmovchiligi) yurak qon-tomir tizimi holatini, surunkali dializ fonida yurak faoliyatini korreksiyalashni;

- homiladorlikda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qariyalarda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- yurakning kam uchraydigan kasalliklarini (Lenegra kasalligi, yurak o'smalari, Marfan kasalligi, yurak va tomirlar rivojlanishida kam uchraydigan nuqsonlar) bilishi va ulardan foydalana olishi;
- shifokorlar etikasi va tibbiyot denotologiyasiga amal qilish;
- yangi kelgan bemorni kasallik tarixini to'ldirish, tekshiruv va davolash rejasini tuzish;
- davolash, tashxislash, tibbiy xujjatlarni olib borish, bemorlarni dinamikada kuzatish, klinik, yakuniy tashhis qo'yish, kasalxonadan chiqish hujjatlarini to'ldirish;
- yurak qon –tomir tizimi va boshqa ichki a'zolar asbobiy tekshirishlar natijalarini tahlil qilish;
- yurak ritmining paraksizmal buzilishlarini davolash;
- o'tkir koronar sindromda tez yordam tadbirlarini o'tkazish;
- gipertonik krizlarini davolash;
- o'tkir yurak yetishmovchiligi va shok holatlaridan chiqarish;
- yurak tashqi massajini o'tkazish;
- kardiologik bemorlarga reabilitasion tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, tibbiy hujjatlarni yuritish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi xolatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilgor pedagogik texnologiyalardan va multimediya vositalaridan foydalanish, kursantlarni

undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Kardiologiya” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining mutaxassislik faoliyati bilan bogliq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni xal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq yetish.

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

- Kardiologiya sohasida Respublikamizda olib borilayotgan ishlar, ularning chet ellardagi shu sohadagi qilinayotgan ishlardan farqi va o'xshashligi.

- Kasalliklarning xalqaro tasnifi.
- Tamaki chekishning yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishidagi o‘rni.
- Yurak qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda O‘zbekiston Respublikasidagi mahalliy sihatgohlarning ahamiyati.
- Miokard infarktini davolashda trombolitik davo va uning o‘ziga xos tamoillari.
- Homiladorlarda yurak qon- tomir kasalliklarni davolash tamoillari (VNOK tavsiyasi).
- Yurak qon - tomir kasalliklarini birlamchi va ikkilamchi profilaktikasida dori vositalarini samaradorligi va xavfsizligi. (VNOK tavsiyasi).
- Yurak qon - tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni davolashda mono- va dinitalarni qo‘llashga qiyosiy yondoshish.
- Gipertonik (dissirkulyator) ensefalopatiya. Tashxislash va davolash tamoillari.
- Bolalar va o‘smirlar orasida yurak qon - tomir kasalliklari profilaktikasi (VNOK tavsiyasi).
- Miokardni surunkali kasalliklarida venoz tizim xolati.
- Peripartal kardiomiopatiya. Klinikasi, tashxislash, davolash. Kasallik oqibati va profilaktikasi. Ona va bola o‘limida uning o‘rni.
- Kavasaki kasalligi. Klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va davolash.
- Nunan sindromi. Lentiginoz. (KMP yuzdagi nuqsonlar bilan birga kechishi). Klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va davolash.
- Yomon sifatli AG va simptomatik AG larni qiyosiy tashxislash. Davoga rezistent bo‘lgan AG va ularni davolash tamoyillari.
- Surunkali yurak yetishmovchiligini tashxislash va davolash bo‘yicha OSSN, RKO va RNMOT tavsiyalari va ularni taxlili.
- Taxikardiyalarni davolashda kateterli ablyasiyaning zamonaviy imkoniyatlari.
- Organizmda ayrim moddalarni to‘planishi bilan kechaligan kasalliklarda KMP (gemoxromatoz, Fabri, Niman - Pik kasalligi).

- Glikogen to'planishi bilan kechaligan kasalliklarda KMP (glikogenoz II tip, Pompe kasalligi).
- Toksik KMP (alkogolli kardiomiopatiya, kokain qabul qilgan va rakka qarshi davo olgan bemorlarda kardiomiopatiya).
- Ko'krak qafasida og'riq bilan kechuvi koronarogen va toj tomirlarga bog'liq bo'lmagan kasalliklarni qiyosiy tashxislash.
- Renin-angiotenzin-al'dosteron tizimini kombinirlangan blokadasi: AAFI va angiotenzina II reseptorlari blokatorlarini birga qo'llanishi samaradorligi.
- Gipertoniya kasalligi bilan og'riq bemorlarda chap va o'ng qorinchalarni diastolik disfunktsiyasi va ularni davolash tamoillari.
- Arterial gipertenziyada giperfil'tratsiya: rivojlanish mexanizmi, tashxislash usullari va davolash.
- Orttirilgan yurak nuqsoni bilan kasallangan bemorlarni olib borish va reabilitatsiyasi (Amerika kardiologlari va Amerika yurak assosiasiyasi tavsiyasi).
- Kattalarda kam uchraydigan tug'ma yurak nuqsonlari (Ebshteyn anomaliyasi, Ulya anomaliyasi, ChADLV, Val'sal'v sinusi anevrizmasi).
- Bland–Uayt–Garland sindromi. Tashxislash va davolash.
- Amaliy kardiologiyada yurak amiloidozi, tashxislash, davolash va profilaktikasi.
- Yurakni o'ng va chap bo'limlari bo'shlig'idagi miksomani tashxislash va jarroxlik yo'li bilan davolash samaradorligi, kasallik oqibati.
- O'tkir mitral yetishmovchiligi etiopatogenezi, tashxislash va davolash.
- O'tkir aortal yetishmovchiligi etiopatogenezi, tashxislash va davolash.
- To'satdan koronar o'lim. Xavf stratifikatsiyasi va profilaktikasi.
- Konstriktiv perekardit etiopatogenezi, klinikasi, zamonaviy tashxislash me'zonlari va davolash.
- O'tkir nospesifik perikardit etiopatogenezi, klinikasi, zamonaviy tashxislash mezonlari va davolash.

□ Miokard va perikarditni kollagenozlarda shikastlanishi patogenezi, klinikasi, zamonaviy tashxislash me'zonlari va davolash.

□ Miokard distrofiyasi (miokardozi) etiopatogenezi, klinikasi, zamonaviy tashxislash me'zonlari va davolash.

Imtixon savollari

1. 1 daraja atrioventrikulyar blokadaning EKG belgilari
2. 2 daraja atrioventrikulyar blokadaning (Mobits 1) EKG- belgilari.
3. 2 daraja atrioventrikulyar blokadaning (Mobits 2) EKG- belgilari.
4. 3 daraja atrioventrikulyar blokadaning EKG belgilari.
5. A-V blokadasi. Kardiostimulyasiyaga ko'rsatma.
6. Q tishchali miokard infarkti EKG o'zgarishlari.
7. Q tishchasiz miokard infarktining EKG mezonlari.
8. WPW sindromi. Qo'shimcha o'tkazish yo'llari haqida tushuncha. WPW sindromidagi ritm buzilishlarining EKG diagnostikasi.
9. β -adrenoblokator klassifikatsiyasi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
10. AAF ingibitorlarining klassifikatsiyasi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
11. AGning diagnostikasi va davolash bo'yicha tavsiyalari.
12. Angiotenzin reseptori antagonistlari. Ta'sir mexanizmi. Tavsiya koidasi.
13. Antianginal preparatlar tasnifi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
14. Antiaritmik preparatlar klassifikatsiyasi
15. Antiaritmik preparatlar klassifikatsiyasi
16. Antiaritmik preparatlar klassifikatsiyasi.
17. Antiaritmik preparatlar tasnifi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
18. Aritmiyalarning tasnifi va etiologiyasi.
19. Aritmiyalarni davolashning umumiy prinsiplari. Antiaritmik preparatlar tasnifi.
20. Arterial gipertoniya darajasining ahamiyati, kechish dinamikasi, xavf omillari.

21. Arterial gipertoniya kasalligi xavf stratifikasiyasi va klassifikasiyasini zamonaviy prinsiplari.
22. Arterial gipertoniyalarni davolashning umumiy prinsiplari.
23. Ateroskleroz etiologiyasi va xavf omillari. Aterosklerozning klinik manzarasi, diagnostikasi.
24. Ateroskleroz profilaktikasi.
25. Ateroskleroz. Rivojlanishiga zamonaviy karash.
26. Atrioventrikulyar o'tkazuvchanlikning buzilishi etiologiyasi, hosil bo'lish mexanizmi.
27. Beta-blokatorlar. Ta'sir mexanizmi. Preparat tanlashga yondashuv.
28. Betta blokatorlar, kal'siy antagonistlari tavsifi va tasnifi.
29. Betta blokatorlar, kal'siy antagonistlari qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
30. Bo'lmacha fibrillyasida farmakologik kardioversiya o'tkazish koidasi.
31. Bo'lmacha ekstrasistoliyasi etiologiyasi, kelib chiqish mexanizmi.
32. Bo'lmacha ekstrasistoliyasining klinik manzarasi, EKG mezonlari.
33. Bo'lmachalar ichi blokadasining EKG belgilari.
34. Bo'lmachalar taxikardiyasini zamonaviy davolash prinsiplari.
35. Bo'lmachalar titrashi klinik manzarasi, EKG mezonlari. Bo'lmachalar titrashini medikamentoz davolash prinsiplari.
36. Bo'lmachalar fibrillyasiyasi bo'lgan bemorlarga antikoagulyant terapiya bo'yicha tavsiyalar.
37. Bo'lmachalar hilpillashi va titrashining hosil bo'lish mexanizmi va etiologiyasi, qiyosiy tashxisi.
38. Bo'lmachalar hilpillashi medikamentoz va nomedikamentoz (kardioversiya) davolash.
39. Bo'lmachalar hilpillashi mexanizmi va etiologiyasi. Bo'lmachalar hilpillashi klinik manzarasi, EKG mezonlari.
40. Vazospastik stenokardiyaning ta'rifi, etiologiyasi va patogenezi, klinik kechish xususiyatlari, diagnostikasi, EKGdagi o'zgarishlar.

41. Vaqtdan oldin qorinchalar qo'zg'alish sindromi etiologiyasi, mexanizmi.
42. Vaqtdan oldin qorincha qo'zg'alishi sindromi. Etiologiya. Diagnostika. Davo.
43. Veloergometriya o'tkazish qo'llanmasi.
44. Geparin va past molekulyar geparinlar tavsifi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
45. Gipertonik kriz bilan bemorlarni olib borish taktikasi. Gipertonik krizlarning profilaktikasi.
46. Gipertonik kriz. Davosi. Asorati. Keksalarda kechishining o'ziga xosligi.
47. Gipertonik krizlarning rivojlanish mexanizmi, klinikasi, diagnostik mezonlari.
48. Gipertoniya kasalligi va buyrak bilan bog'liq arterial gipertenziyalarning qiyosiy tashxisi.
49. Gipertoniya kasalligi va gemadinamik, serebral arterial gipertenziyalarni taqqoslama tashhishlash.
50. Gipertoniya kasalligi va sklerotik arterial gipertenziyani taqqoslama tashhishlash.
51. Gipertoniya kasalligi. Etiologiya. Klassifikasiya.
52. Gipotenziv preparatlarni klassifikasiyasi. Gipotenziv davolash tanlashni zamonaviy prinsiplari.
53. Giss tutami o'ng oyoqchasini noto'liq blokadasini EKG mezonlari.
54. Giss tutami o'ng oyoqchasini to'liq blokadasini EKG mezonlari.
55. Giss tutamining chap oyoqchasini to'liq blokadasining EKG mezonlari.
56. Giss tutamining chap oyoqchasining noto'liq blokadasini EKG mezonlari.
57. Defibrilyasiya o'tkazish qoidasi.
58. Dislipidemiyalarni Fredrikson bo'yicha klassifikasiyasi, ateroskleroz rivojlanishida xar xil tipdagi dislipidemiyalarni ahamiyati.
59. Diuretiklar. Ta'sir mexanizmi. Tavsiya koidasi.
60. Jismoniy yuklama sinamasi o'tkazishning klinik ahamiyati. Ko'rsatma va qarshi qo'rsatmalar. Jismoniy yuklama sinamasini to'xtatish kriteriyalari.

61. Ikki va uch tutamli blokadalar EKG mezonlari.
62. Impul's o'tkazuvchanligining buzilishining re-entry mexanizmi.
63. Infeksion endokardit. Zamonaviy davolash usullari. Xirurgik davoga ko'rsatma.
64. Infeksion endokardit. Etiologiya. Klassifikasiya. Klinika. Diagnostika.
65. Kal'siy antagonistlari. Klassifikasiya. Ta'sir mexanizmi.
66. Kardiogen shok tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, kiyosiy tashxisi, shoshilinch yordam
67. Kardiomiopatiyalar etiologiya, diagnostika va davolash usulari. klinik manzarasi, diagnostikasi.
68. Koagulagramma natijasi interpretasiyasi.
69. Kollaps. Etiologiya. Klinika. Diagnostika. Shoshilinch yordam ko'rsatish.
70. Kombinasiyalangan ritm buzilishlarining kelib chiqish mexanizmlari.
71. Ko'krakdagi og'riqlar differensial diagnostikasi. Qiyosiy tashxisoti. EKG tahlili.
72. Qorincha taxikardiyasi va fibrillyasiyasi diagnostikasi, davo taktikasi.
73. Qorincha taxikardiyasi va fibrillyasiyasi etiologiyasi, gemodinamikasi, klinikasi.
74. Qorincha tipida ritm buzulishi. Davoga yondashuv.
75. Qorinchalar asistoliyasi davolash prinsiplari. EDF (Elektrik defibrillyasiya) ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
76. Qorinchalar asistoliyasi mexanizmi, klinik manzarasi, diagnostikasi.
77. Qorinchalar taxikardiyasi mexanizmi va etiologiyasi, klinik manzarasi, EKG mezonlari.
78. Lipid almashinuvi buzilishining medikamentoz davosi.
79. Lipoproteidlar haqida tushuncha.
80. Me'yoriy EKG tahlili
81. Miokard infarkti asoratlari infarktdan keyingi erta paydo bo'lgan stenokardiya, Dressler sindromi klinikasi, diagnostikasi, davo taktikasi.

82. Miokard infarkti asoratlari: perikardit, tromboendokardit klinikasi, diagnostikasi, davo taktikasi.
83. Miokard infarkti bilan bemorlarni shifoxonagacha bo'lgan bosqichda olib borish taktikasi va transportirovkasi.
84. Miokard infarkti epidemiologiyasi, etiologiya va patogenezi
85. Miokard infarkti erta kechki asoratlari tasnifi.
86. Miokard infarktida beta-blokatorlarni qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
87. Miokard infarktining turli klinik shakllari va bosqichlarini taqqoslama tashxislash. EKG diagnostikasi.
88. Miokard infarktni jarroxlik yo'li bilan davolash usullari va ularga ko'rsatmalar. Translyuminal ballonli angioplastika, aortakoronar shuntlash. Koronar endarterektomiya. Stent turlari
89. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari tasnifi va xususiyatlari.
90. Miokarditlar. Etiologiya. Klassifikasiya. Klinika. Diagnostika.
91. Miokardning og'riqsiz ishemiyasi va mikrovaskulyar stenokardiya klinik me'zonlari, tashxislash va davolash.
92. Mitro-aortal nukson. Gemodinamika. Diagnostika.
93. Mitro-aortal stenoz. Gemodinamika. Klinika. Diagnostika.
94. Morgani-Adam-Stoks xuruji. Yuzaga kelish sababi. Shoshilinch yordam ko'rsatish.
95. Nostabil stenokardiya, klassifikasiyasi. Nostabil stenokardiyaning Braunwald bo'yicha tasnifi.
96. Nostabil stenokardiya antitrombotik davo. Ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, samaradorligini baxolash me'zonlari va prognozi.
97. Oilaviy giperxolesterinemiya haqida tushuncha.
98. Oral kontraseptivlarni qo'llash, birlamchi al'dosteronizm, Kushing sindromida arterial bosim oshishining patogenezi va qiyosiy tashxisi.
99. Ochiq arterial oqim. Gemodinamika. Klinika.

100. Paroksizmal bo'lmachalar taxikardiyasi mexanizmi va etiologiyasi. klinik manzarasi, nomedikamentoz va medikamentoz davolash.
101. Paroksizmal xilpirash aritmiyasi. Etiologiya. Diagnostika. Davo. Profilaktika.
102. Perikarditlar. Etiologiya va patogenezning zamonaviy ko'rinishlari. Klassifikatsiya, diagnostika va davolash.
103. Politop bo'lmacha ekstrasistoliyasini medikamentoz davolash.
104. Renin-angiotenzin-al'dosteron tizimi haqida tushuncha.
105. Ritm boshqaruvchi migratsiyasi, sinus tuguni holsizlik sindromi,
106. Ritm buzilishlari klassifikatsiyasi. re-entry mexanizmining aritmiyalarning paydo bo'lishidagi roli.
107. Ritm va o'tkazuvchanlikning murakkab buzilishlarida medikamentoz davolashga zamonaviy yondoshuvlar.
108. Sinoatrial blokadasi EKG belgilari.
109. Sinus tuguni kuchsizligi sindromi. Yuzaga kelish sabablari. Klinika. Bemorni olib borishga yondashuvlar.
110. Sinusli taxikardiya, sinusli bradikardiya, sinusli aritmiyalarni
111. Statinlarni qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma.
112. Stenokardiyalar va miokard infarktida og'riq sindromining taqqoslama tashxisi.
113. Stenokardiyaning xar xil funksional sinflarida EKG da kuzatiladigan o'zgarishlar.
114. Surunkali o'ng qorincha yetishmovchiligi. Klinika.
115. Surunkali yurak yetishmovchiligi davolash prinsiplari haqida zamonaviy tushunchalar.
116. Surunkali yurak yetishmovchiligi. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya.
117. SYuE etiologik sabablari va rivojlanish xavf omillari.
118. Tugunli ekstrasistolalarni medikamentoz davolash prinsiplari.
119. Tugunli ekstrasistoliya etiologiyasi, kelib chiqish mexanizmi,
120. Turg'un zo'riqish stenokardiyasi, etiologiyasi, klinikasi va tasnifi.

121. Turg'un zo'riqish stenokardiyasini, nostabil stenokardiyalar va o'tkir koronar sindrom bilan taqqoslama tashxisi.
122. To'satdan koronar o'limning klinikasi, diagnostikasi, profilaktikasi
123. To'satdan koronar o'limning ta'rifi, etiologiyasi, patogenezi, xavf omillari.
124. To'satdan o'lim tushunchasi. Epidemiologiya va xavf stratifikatsiyasi haqida tushuncha.
125. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi va davo taktikasi.
126. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi. Klinika. Diagnostika.
127. O'tkazuvchanlik buzilishlarini medikamentoz va nomedikamentoz davolash
128. O'tkazuvchanlik buzilishlarini elektrik davolash usullari (elektrokardiostimulyatsiya).
129. O'tkir koronar sindrom ta'rifi, patofiziologiyasi, klinik manzarasi.
130. O'tkir koronar sindrom. Tushuncha. Rivojlanish mexanizmi. Diagnostika. EKG belgilari.
131. O'tkir koronar sindromda trombolitik terapiya. Turlari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
132. O'tkir miokard infarkti asoratlari: o'tkir yurak yetishmovchiligi, Killip bo'yicha klassifikatsiyasi.
133. O'tkir miokard infarkti. O'tkir davrini davolashga zamonaviy yondashuv.
134. O'tkir miokard infarkti: qaytalanuvchi, qayta infarkt. Diagnostika.
135. O'tkir chap qorincha yetishmovchiligi. Etiologiya. Killip bo'yicha klassifikatsiyasi.
136. O'tkir yurak yetishmovchiligi tasnifi, etiologiyasi, klinikasi.
137. O'tkir yurak yetishmovchiligida davo taktikasi, profilaktikasi.
138. Feoxromositoma va akromegaliyada arterial bosim oshishining patogenezi va qiyosiy tashxisi.
139. Fredrikson sindromi haqida tushuncha.

140. Xalqaro tavsiyalarga asoslangan o'tkir koronar sindrom zamonaviy antiagregant davolash.
141. Ekstrasistoliyalarni qiyosiy tashxisoti. EKG tahlili
142. Ekstrasistoliyaning Laun buyicha klassifikatsiyasi.
143. Ektopik ritm kirish va chiqish blokadasi bilan, uzaygan Q-T intervali sindromi.
144. Elektrik defibrillatsiya: bajarish texnikasi, nojo'ya ta'sirlari, qarshi ko'rsatmalar.
145. Elektrik kardioversiya. Tushuncha. Ko'rsatma. Qarshi ko'rsatma.
146. Essensial gipertenziyalarning tashxisiy mezonlari, tasnifi, laborator tekshiruv usullari.
147. YuIK bor bemorda fizikal ko'ruv o'tkazish qoidasi.
148. YuIK rivojlanishida boshqarib bo'ladigan va boshqarib bo'lmaydigan xavf omillari haqida ma'lumot.
149. YuIK tashxislashda funksional sinamalar.
150. Yurak – qon tomir tizimi anatomiyasi. Yurak – qon tomir tizimi fiziologiyasi.
151. Yurak gemodinamikasi, yurak sikli va uning davrlari.
152. Yurak ishemik kasalliklari (YuIK) rivojlanishida aterosklerozning ahamiyati.
153. Yurak ishemik kasalliklari (YuIK) ni yurak qon tomir tizimining boshqa kasalliklari bilan qiyosiy tashxislash.
154. Yurak ishemik kasalliklari (YuIK) ta'rifi va epidemiologiyasi, YuIK tasnifi.
155. Yurak ishemik kasalliklari xavf omillarini profilaktikasi va reabilitatsiya tadbirlari
156. Yurak ishemik kasalliklari. Jarrohlik amaliyotiga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
157. Yurak qon tomir kasalliklarini boshqarib bo'ladigan va boshqarib bo'lmaydigan xavf omillari.

158. Yurak qon tomir kasalliklarini kamaytirishda sog'lom turmush tarzining ahamiyati.

159. Yurak revmatik poroklari: mitral va aortal klapanlarning yetishmovchiligi

160. Yurak ritmini buzilishlarini davolashda radiochastotali ablasion usullari.

161. Yurak tug'ma nuqsonlari: klinika, diagnostika.

162. Yurak turli xil bo'limlari gipertrofiyasi EKG diagnostikasi.

163. Yurak faoliyatining ishemik, elektrolit va boshqa buzilishlarida davo tanlash.

164. Yurak-qon tomir kasalliklari laborator-biokimyoviy ko'rsatkichlar. Natriy uretik peptid haqida tushuncha.

165. Yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishida endotelial disfunksiyaning ahamiyati.

14.00.06 – “Kardiologiya” ixtisosligi bo'yicha imtihonni baholash mezonlari

№	O'zlashtirish % hisobida	Baho	O'zlashtirish % hisobida
1	96-100%	A`lo «5»	Mavzuning nazariy qism savollarga to'liq va to'g'ri javob. Javob dastur me'yoridandan yuqori, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan xolda yuqori sifatda va ijodiy yondoshgan xolda berilgan. Mustaqil ravishda savolni taxlil qiladi va ijodiy fikrlaydi, xulosa qiladi.
2	91-95%	A`lo «5»	Nazariy qismdagi savollarga to'liq javob. Javob dastur me'yoridandan yuqori, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan xolda yuqori sifatda va ijodiy yondoshgan xolda berilgan. Savolni mustaqil ravishda taxlil qiladi va ijodiy fikrlaydi, xulosa qiladi.
3	86-90%	A`lo «5»	Nazariy qismdagi savollarga to'liq, lekin 1-2 xatoliklar bilan javob berilgan. Savolni mustaqil ravishda savolni taxlil qiladi.
4	81-85%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu bo'yicha savollarga to'liq, lekin 2-3 xatoliklar bilan

			javob berilgan. Javoblarni amaliyotda qo‘llay oladi, savol mag‘zini anglab yetadi, tassavurga ega.
5	76-80%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu bo‘yicha savollarga noto‘liq javob berilgan. Ilmiy izlanuvchi mavzuni biladi, ammo uni to‘liq anglab yetmaydi.
6	71-75%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu savolga to‘g‘ri, lekin noto‘liq javob berilgan. Ilmiy izlanuvchi mavzuni o‘zlashtirgan, lekin savollarga to‘liq javob bermaydi.
7	66-70%	Qoniqarli «3»	Nazariy qismdagi qo‘yilgan savollarning yarmiga javob berilgan.
8	61-65%	Qoniqarli «3»	Ilmiy izlanuvchi mavzuni o‘zlashtirgan. Savollarga noto‘liq, ba‘zilariga javob beradi.
9	55-60%	Qoniqarli «3»	Nazariy qismdagi ko‘yilgan savollarning yarmiga javob berilgan. Savollarga noto‘liq, xatoliklar bilan javob beradi. Mavzu asoslanmagan.
10	50-54%	Qoniqarsiz «2»	Nazariy qismdagi qo‘yilgan savollarning yarmiga noto‘liq javob berilgan. Savollarga noto‘liq, asossiz xatoliklar bilan javob beradi. Savolning ba‘zi yo‘nalishlari haqida tasavvurga ega, noaniq tushunchaga ega.

Adabiyotlar

Asosiy

1. Браунвальд Е. Руководство по сердечно-сосудистой медицине 1-4 том. Москва Рид Элсивер 2010- 2015 гг.
2. Гадаев А.А. Разиков, М. Рахимова. Амалий электрокардиография. Тошкент: Турон замин зиё, 2016 й.
3. Гадаев А.Г. Ички касалликлар. Тошкент, Турон Замин зиё, 2014 й.
4. Курбанов Р.Д. Клиник кардиология. Тошкент, 2010 й.
5. Курбанов Р.Д., Абдуллаев Т.А. Дилатационная кардиомиопатия. Ташкент 2013 г.
6. Орлов В.Н. Руководство по электрокардиографии. М.: 2015 г.

7. Фрида М. и Граймс С. Кардиология в таблицах и схемах под ред.М.: Практика, переиздано в 2010 г.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Беленкова Ю.Н., Терновой С.К. Функциональная диагностика сердечно-сосудистых заболеваний. М: ГЭОТАР-Медиа, 2007.
2. Гитун. Т.В. Диагностический справочник кардиолога. Издательство «АСТ», Москва, 20014 г.
3. Голдбергер А. Л. Клиническая электрокардиография наглядный подход: пер. с англ.–М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009г.
4. Кроуфорд М. Кардиология. Краткий справочник., Шриватсон К. Издательство “Питер”, 2006 г.
5. Курбанов Р.Д. Желудочковые нарушения ритма сердца. Ташкент, 2012 г.
6. Люсов В.А. Аритмии сердца. Терапевтические и хирургические аспекты: руководство/ М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009 г.
7. Моисеева В.С. Аритмии сердца. Основы электрофизиологии, диагностика, лечение и современные рекомендации: ГЭОТАР-Медиа, 2009 г.
8. Мутафьян О.А. Детская кардиология. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009 г.
9. Мухин Н.А. Внутренние болезни, том 1-3 М.: ГЭОТАР- Медиа,2009г.
10. Окороков А.Н. Диагностика болезней внутренних органов. Все тома. 2009 г.
11. Руководство по кардиологии в 4-х томах /под ред. Е.Н.Чазова – М.: Медицина, 2005 г.
12. Руксин В.В. Неотложная кардиология. СПб: Невский Диалект, 2001г.
13. Сергеев В. А. Рентгеновская компьютерная мультиспиральная томография сердца/ М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009.
14. Сулимова В.А. Медикаментозное лечение нарушений ритма сердца, М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011г.
15. Фрида М. и Граймс С. Кардиология в таблицах и схемах под ред. Москва. Практика, 2016г.
16. Харрисон. Справочник по внутренним болезням. Перевод с английского. Санкт-Петербург, переиздано в 2012г.

17. Циммерман Ф. Клиническая электрокардиография: пер. с англ.–2-е издание, Бином, Москва, 2011г.
18. Чазов Е.И.Руководство по кардиологии: В 4-х т. / под ред.. - М., 2014.
19. Чазова Е.И., Голицына С.П. Руководство по нарушениям ритма сердца М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010.
20. Чазова Е.И., Голицына С.П. Руководство по нарушениям ритма сердца М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010 г.
21. Шлант Р.К. и соавторы. Клиническая кардиология. М.-СПб: БИНОМ-Невский диалект, 2010г.
22. Шостак Н.А. Руководство по неишемической кардиологии М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009 г.
23. Элисдейр Райдинг. Эхокардиография. Практическое руководство, перевод с английского. Москва, Издательство «МедПресс-информ», 2012.
24. Якушин С.С., Никулина Н.Н., Селезнев С.В.. Инфаркт миокарда. – 2-е изд., перераб и доп. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. – 240с.: ил.
25. Braunwald's heart disease a text book of cardiovascular medicine 1-4 parts/ Saunders elsevier 2010/heart disease in infant, children and adolescents / Emanuilidis – 5thed/ Vol 1, 2.
26. Galen S. Marriott's Practical Electrocardiography/ Wagner 2000
27. Mark C. Handbook of Antihypertensive Therapy. Houston 2011
28. Michael L. Heart Disease in Primary Care/ Hess 2010
29. VaughanWilliams E.M. Control of Cardiac Rhythm/ 2009

Internet saytlari

1. www.journal.ahleague.ru
2. www.consilium-medicum.com
3. www.elibrary.ru
4. www.vestar.ru
5. www.mediasfera.ru
6. www.cardio-journal.ru

